
TOSHLOQ TUMAN DAVLAT SOLIQ INSPEKSIYASIDA TABIRKORLAR BILAN DAVRA SUHBATI O'TKAZILDI.

Davra suhbatida Marg'ilon tumanlararo iqtisodiy sudining raisi A.Akbarov 2022 yilning I-choragida 44183 ta xo'jalik yurituvchi sub'yektlar soliq imtiyozlaridan foydalangan bo'lib, ular uchun qo'llanilgan imtiyozlarning umumiy qiymati 9 trillion so'mdan ziyodni tashkil etganini ta'kidlab o'tdi..

Qayd etilishicha, soliq imtiyozlari 7 turdagi soliqlar bo'yicha berilgan va ularning salmoqli qismi qo'shilgan qiymat solig'i hissasiga to'g'ri keladi (93,5 foiz). Keyingi o'rinlardan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (1,6 foiz), foyda solig'i (1,6 foiz), yer solig'i (1,3 foiz), ijtimoiy soliq (1 foiz), mol-mulk solig'i (0,6 foiz) va aylanmadan olinadigan soliqlar (0,3 foiz) joy olgan.

Tadbirkorlarga suhbat jarayonida soliq imtiyoziga ega bo'lganlar ro'yxatida mulkchilik shakli turlicha bo'lgan soliq to'lovchilar - davlat korxonalari, xususiy tadbirkorlik sub'yektlari, qo'shma korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari hamda xorijiy kompaniyalar borligi, hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan davlat dasturining 34-bandi ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Toshloq tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-06-10 16:39:39